


O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

60320100 - Jurnalistika: bosma ommaviy axborot vositalari jurnalistikasi
bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari

Toshkent



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, professional ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021 yil «24» 08 dagi 1 - sonli yig‘ilishida ma‘qullangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021 yil «25» 08 dagi 368 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish xuquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

60320100 - Jurnalistika: bosma ommaviy axborot vositalari jurnalistikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi	4
Qo'llanish sohasi	4
<i>60320100 - Jurnalistika: bosma ommaviy axborot vositalari jurnalistikasi bo'yicha ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi</i>	<i>4</i>
Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
60320100 - Jurnalistika: bosma ommaviy axborot vositalari jurnalistikasi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
<i>60320100 - Jurnalistika: bosma ommaviy axborot vositalari jurnalistikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....</i>	<i>4</i>
<i>60320100 - Jurnalistika: bosma ommaviy axborot vositalari jurnalistikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining ob'yektlari.....</i>	<i>5</i>
<i>60320100 - Jurnalistika: bosma ommaviy axborot vositalari jurnalistikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining turlari</i>	<i>5</i>
<i>60320100 - Jurnalistika: bosma ommaviy axborot vositalari jurnalistikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy vazifalari.....</i>	<i>5</i>
60320100 – Jurnalistika bosma OAV jurnalistikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	7
Umumiy kompetensiyalar	7
Kasbiy kompetensiyalar	8
Bibliografik ma'lumotlar.....	9
Kelishuv varag'i.....	10

1. 60320100 - Jurnalistika: bosma ommaviy axborot vositalari jurnalistikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60320100 - Jurnalistika: bosma ommaviy axborot vositalari jurnalistikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 60320100 - Jurnalistika: bosma ommaviy axborot vositalari jurnalistikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **60320100 - Jurnalistika: bosma ommaviy axborot vositalari jurnalistikasi** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlar;

- oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning otionalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60320100 - Jurnalistika: bosma ommaviy axborot vositalari jurnalistikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 60320100 - Jurnalistika: bosma ommaviy axborot vositalari jurnalistikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60320100 - Jurnalistika: bosma ommaviy axborot vositalari jurnalistikasi - jurnalistika va axborot sohasidagi yo'nalish bo'lib, u davlat, aksionerlik va xususiy kompaniyalar (firmalar), ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari, davlat va nodavlat organlari axborot xizmatlari, PR va reklama agentliklari, internet

tarmog'i, jamiyatda tezkor axborot almashinuv va ishonchli axborot bilan ta'minlash kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60320100 - Jurnalistika: bosma ommaviy axborot vositalari jurnalistikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'yektlari:

- matbuot nashrlari va jurnalistik materiallar;
- radio eshittirish va teleko'rsatuvlar;
- axboriy, tahliliy va badiiy-publitsistik janrlar;
- axborot agentliklari orqali tarqatiladigan yangiliklar;
- reklama agentligi mahsulotlari, ichki va tashqi reklama;
- internet jurnalistikasi materiallari, saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, gipermatnlar;
- davlat boshqaruvi organlari, vazirliklar, korxonalar va idoralar matbuot markazlarining axborot materiallari, press-revizlar;
- davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;
- jamoatchilik bilan aloqalar (PR) va axborot xizmatlari materiallari;
- nashriyot-matbaa konsern va bosmaxonalarda chop etiladigan bosma mahsulotlar.

60320100 - Jurnalistika: bosma ommaviy axborot vositalari jurnalistikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik kayta tayyorlashdan utgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniklanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shugullanish xukukiga ega buladi. Bakalavriatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. 60320100 - Jurnalistika: bosma ommaviy axborot vositalari jurnalistikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlarining turlari:

- tashkiliy-boshqaruv;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;
- axborot-tahliliy faoliyat;
- Tadbirkorlik faoliyati.

1.2.4. 60320100 - Jurnalistika: bosma ommaviy axborot vositalari jurnalistikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60320100 - Jurnalistika: bosma ommaviy axborot vositalari jurnalistikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'yektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- OAV faoliyatini yo'lga qo'yish, uning huquqiy asoslari, tashkiliy tuzilmalari hamda qonun asosida amalga oshiriladigan faoliyatini yo'lga qo'yish;

- ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish;

- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan xodimlar ijodiy jamoasi, faoliyat vositalari va resurslarini rejalashtirish;a
- axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;
- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda to'g'ri va sog'lom qaror qabul qilish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

- ilmiy va amaliy faoliyatda jurnalistik ijod mahorati va ko'nikmalarini rivojlantirib borish va ulardan foydalanish;
- milliy va xalqaro kasbiy etika kodeksiga rioya qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarni rejalashtirish;
- ishlab chiqarish faoliyati sifatini ta'min etuvchi boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlarida atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligini ta'minlash;
- yo'nalishiga mos mavzulardagi loyihalar, manbalar, adabiyotlar, elektron video va audio maxsulotlarni ekspertiza qilish;
- ixtisoslikka mos sohalar bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish;
- soha bo'yicha tegishli servis xizmati ko'rsata olishi, jurnalistika sohasida maslahatchilik, tarjimonlik, axborot to'play olish yo'llari, uslublarini qo'llay olishi va tashkiliy ishlarni bajara olish;
- yo'nalishiga mos mavzulardagi loyihalar, manbalar, adabiyotlar, elektron video va audio mahsulotlarni ekspertiza qilish;
- ixtisoslikka mos sohalar bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- milliy va xorijiy OAV faoliyatini tadqiq qilish, ular faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni jahon jurnalistikasi sifat va standart mezonlariga qiyoslagan holda milliy jurnalistika va OAV faoliyati uchun samarali bo'lgan jihatlarni ko'rsatib bera olish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, jurnalistik ijodga oid yutuqlar haqidagi informatsiyani maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (tayyorlanganlik profiliga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, jurnalistik, publitsistik va filologik adabiyotlar ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

- ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;

- o'tkazilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari mavzusi bo'yicha modellar, metodlar, tahliliy ob'yekt va predmetni o'rganish, mavzu muammosini tadqiq qilish va ilmiy yechimlarini ishlab chiqish;

- ilmiy nazariy qarashlari va OAV amaliy faoliyati bo'yicha eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish va ularning natijalariga ishlov berish;

- ilmiy hisobotlar va tushuntirish xatlarini ishlab chiqish;

- o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy hisobotlar, loyihalashtirish ishlarini tayyorlash, mustaqil ishlar va bibliografiyalar tuzish;

- ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtirok etish va ilmiy jurnallarga maqolalar tayyorlash;

- tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish;

- ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish.

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi buyicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

- elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv- metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Tadbirkorlik faoliyatida:

- yangi media biznes-loyixalarni shakllantirish va amalga oshirish;

- media biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chikish va amalga oshirish.

2. 60320100 - *Jurnalistika: bosma ommaviy axborot vositalari jurnalistikasi* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoliy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sogʻlom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati toʻgʻrisida tasavvurga ega boʻlish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- meʼyoriy-xukukiy xujjatlarni izlash, taxlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish kunikmalariga ega bulish;

- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshkarish strategiyasini Kullash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish kunikmalariga ega bulish;

- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn alokalarni amalga oshirishni bilish;

- dunyoqarash bilan bogʻliq tizimli bilimlarga ega boʻlishi;

- gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

- Vatan tarixini bilishi, maʼnaviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan oʻz fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy gʻoyaga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega boʻlishi;

- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega boʻlishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va oʻz kasb faoliyatida foydalana bilishi;

- insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda maʼnaviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

- axborot yigʻish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan boʻlishi, oʻz kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

- tegishli bakalavriat yoʻnalishi boʻyicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega boʻlishi;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, oʻz ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

- sogʻlom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati toʻgʻrisida ilmiy tassavvur hamda eʼtiqodga, oʻzini jismoniy chiniqtirish uquv va koʻnikmalariga ega boʻlishi.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7.
OKS 01.040.01

Guruh T 55

Tayanch so'zlar:

Matbuot, reportaj, intervyu, auditoriyani segmentlash, axboriy matbuot, axborot jamiyati, axborot – kommunikasion boshqaruv, axborot-psixologik xavfsizlik, assosheyted press (AP), analiz, anketa, antrefile, argument, afisha, banal, brifing, bingo-karta, bloggerlik, blis-intervyu, videorolik, videopleyer, VIP-jurnal, gazeta "o'rdagi", geosiyosat, OAV globallashuvi, grafomaniya, dalillash, dezoriyentasiya, demagogiya, demoskopiya, de-fakto, de-yure, drayv-taym, bestseller, hududiy matbuot, bulvar jurnalizmi, virtual dunyo, ommaviy kommunikatsiya, onlayn jurnalistika, pablik rileyshnz, axborot globallashuvi, dezinformasiya, jadidlar matbuoti, janr, radio jingl, jurnalist surishtiruvi, jurnalistikada deontologiya, jurnalistikada avtoritarizm, jurnalistik jingoizm, imijmeyker, interaktiv jurnalistika, intervyu-dialog, kompozisiya, kommunikatsiya modellari, kompromiss, konvergensiya, konsensus, kontent-tahlil, kreativ, marketing kommunikatsiyasi, mass-media, media-biznes, mediata'lim, matbuot konferensiyasi, media-matn, montaj, personal jurnalistika, plyuralizm, postindustrial jamiyat, psixologik urush, press-reliz, Reyter, reklama texnologiyalari, press-reliz, press-kit, reportaj, stringer jurnalistika, tijoriylashuv, faktologik janrlar, Frans press, frilans, xronika, sharhlovchilik, epitajli intervyu, ekójurnalistika.

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQLDI:

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti rektori

Sh.T.Qudratxo'ja

“ ” 2021-yil



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'limini rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi direktori v.b.

M.X.Esanov

“ ” 2021-yil



O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi raisi

O.A.O'sarov

“ ” 2021-yil



Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti rektori

I.U.Mad'jidov


“ ” 2021-yil



O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori

U.B.Azizov

“ ” 2021-yil



O'zbekiston Milliy axborot agentligi bosh direktori

A.K.Ko'chimov

“ ” 2021-yil



“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini bosh muharriri

S.M.Doniyorov

“ ” 2021-yil

